



Xalq so'zi

2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 14-avgust, № 163 (8786)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skener qiling.



BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

SUN'YIY INTELLEKT VA STARTAP LOYIHALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAQDIMOT O'TKAZILDI

President Shavkat Mirziyoyev
13-avgust kuni sun'iy intellekt va
IT sohasidagi startap loyihalarni
rivojlanish chora-tadbirlariga doir
taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda axborot texnologiyalari jadal rivojlanirilib, barcha sohada tatbiq etilmoqda. Bularning natijasida shu yilning o'tgan davrida raqamli xizmatlar hajmi 21 trillion so'mdan oshdi, yil yakuni bilan 43 trillion so'mga yetishi kutilmoqda. Sohada 367 million dollarlik xizmatlar eksport qilindi. IT-park rezidentlari 577 taga ko'payib, 2 mingtadan oshdi. Ularda ishlayotgan yoshlarni esa 32 mingtaga yetdi.

Bu yil sog'iqliqni saqlash, energetika, transport, ta'lif, qishloq va suv xo'jaligi, qurilish kabi sohalarida 100 dan ortiq raqamlashtirish loyihalari amalga oshirilmoqda.

Zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Jahonda har bir sohaga sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar kirib kelti. Bu boroda yurtimizda ham qator loyihalarni boshlangan.

Misol uchun, "MyID" va "UzFace" dasturlari 70 dan ortiq tashkilot, bank, elektron savdo maydonchalarini va to'lov tizimlarida joriy qilinib, 10 million foydalanuvchini masofaviy biometrik identifikatsiya qilish imkoniyati yaratildi. "O'zbekkosmos" sun'iy intellekti qo'llab, 43 mingga yaqin yer qaridani noqonuniy foydalanish va ruxsatsiz qurilish holatlarni aniqladi.

Taqdimotda sog'iqliqni saqlash, qishloq xo'jaligi, bank, soliq, bojxonha kabi sohalarida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlanish chora-tadbirlari ko'rib chiqildi.

Avvalo, sun'iy intellekt bo'yicha qonunchilik bazasini yaratish kerakligi qayd etildi. Sun'iy intellekti joriy etish strategiyasi va ikki yillik loyihalarni dasturini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Sun'iy intellekt texnologiyalari markazini tashkil qilish bo'yicha topshiriq berildi.

Xususan, bank-moliya sohasida sun'iy intellekti qo'llashni kengaytirish, bu bo'yicha kadrlar tayorlash va xodimlar malakasini oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Bugungi kunda 4 ta universitetda sun'iy intellekt bo'yicha kadrlar tayyorlanyapti. Hozirda katta ma'lumotlarni qayta ishslash va til modellarini bo'yicha 600 nafr mutaxassisiga tabab bor. Bu kelgusi yillarda karrasiga oshadi. Shuni inobatga olib, sohalar kesimida talabga mos mutaxassislar tayorlash muhimligi aytildi.

Dunyoning barcha ilg'or IT kompaniyalari o'z faoliyatini startapdan boshlagan. Buzda ham bu borada birinchi qadamlar tashlanyapti. O'tgan yili bunday loyihalarni jabol qilingan venchur investitsiyalar hajmi 134 million dollarni tashkil qilgan.

Davlatimiz rahbari startap loyihalarni moliyalashtirish uchun venchur investitsiyalarga keng sharofit yaratish vaqtiga kelganini ta'kidladi. Shu bois startap ekotizimini rivojlanish, venchurli moliyalashtirish mexanizmlarini joriy qilish bo'yicha topshiriqlar berildi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasining
QONUNI

Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risidagi Singapur shartnomasini (Singapur, 2006-yil 27-mart) ratifikatsiya qilish haqida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 30-aprelda qabul qilingan
Senat tomonidan 2024-yil 21-iyunda ma'qullangan

Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risidagi Singapur shartnomasi (Singapur, 2006-yil 27-mart) quyidagi qo'shimcha shart inobatga olingan holda ratifikatsiya qilinsin:

Shartnomalar 29-moddasining 4-bandisi bo'yicha:
"O'zbekiston Respublikasi bayon qiladi, 19-moddaming 2-bandiga qaramay, u huquqlar buzilganligi munosabati bilan huquq egasining tashabbusiga ko'ra boshlangan tartib-taomil ishtiroy etishga yoki litsenziya predmeti sanagan belgiga bo'lgan huquqning bunday buzilishi natijasida yetkazilgan zararning o'rnnini shunday tartib-taomil orqali qoplashga doir har qanday huquq O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq litsenziyatga berilishi uchun shart sifatida litsenziyaning ro'yxatdan o'tkazilishini talab qiladi".

**O'zbekiston Respublikasining
Prezidenti** Sh. MIRZIYOEV

Toshkent shahri,
2024-yil 13-avgust
№ O'RQ—941

E'tirof

"FINALDA BESH BOKSCHI... O'ZBEKİSTONNING SIRI NIMADA?"

Fransiya ommaviy axborot vositalarida o'zbek charm qo'lqop ustalarining Olimpiya o'yinlarida qo'lga kiritgan olamshumul g'alabalari haqida yozishmoqda.

**PARIS 2024 BOXING: ALL RESULTS, AS
UZBEKISTAN'S BAKHODIR JALOLOU
SECURES BACK-TO-BACK GOLDS IN
MEN'S +92KG DIVISION**



KO'P ASRLIK DO'STLIK VA YAXSHI QO'SHNICHILIK SOLNOMASIDA YORQIN SAHIFA

**Keyingi yillarda
Prezidentimiz
Shavkat Mirziyoyev
rahnamoligida
amalg
oshirilayotgan
tinchliksevar tashqi
siyosat tufayli
mamlakatimizning
jahon va mintaq
miyosidagi obro
e'tibori tobora
ortib bormoqda.**

NUQTAI NAZAR



Bu borada, ayniqsa, davlatimiz rahbarining Markaziy Osiyoni tinch va farovon hududga, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro manfaatlari hamkorlik va barqaror taraqqiyot makoniga aylantirish, mintqa

davlatlari o'rtaidagi do'stlik va birdamlik munosabatlarini yanada rivojlanishiga doir tashabbuslari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimizning qo'shni

Qozog'istonga tashrifi, mazkur mamlakatning oliy davlat mukofoti "Oltin qiron" ordeni hamda Markaziy Osyo davlatlari rahbarining Faxriy nishoni bilan taqdirlanishi buning yaqqol misolidi.

►4

VATANNI SHARAFLASH SAODATI

Joriy yilning qaynoq yoz fasli jahon sportida yorqin voqealarga, unutilmash xotiralariga boy o'tmoqda. Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilgan XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlari harorati, quvонч va hayajonlari hali bosilmyang turib, ushu ko'hna kent yana bir xalqaro sport anjumaniga mezonlik qiladi. 28-avgustdan 8-sentyabrga qadar "Parij – 2024" XVII yozgi Paralimpiya o'yinlari bo'lib o'tadi. Ahamiyatlisi, ushu nutzuji anjumanda mamlakatimiz sportchilarini ham o'z iqtidor va salohiyatini, mahorat va matonatini namoyish etadi.



Sport

Shu munosabat bilan poxtaxtimizdagi Olimpiya va paralimpiya shon-shuhurini muzeysi O'zbekiston sport delegatsiyasini para sport turlari bo'yicha to'rt yillikning eng nuzfuzi musobaqalariga tushilishi nogironligi bo'lgan shaxslarni sportga keng jalb etish, paralimpiya harakati qamrovini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning 2021-yil 5-noyabrdagi "2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib otadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlari" O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ushbu jahonshumul musobaqalarga sportchilarimiz puxta hozirishlari uchun keng ko'lamlari chora-tadbirlar olib borildi. Natijada O'zbekiston para sportchilarini navbatdagi yozgi Paralimpiya o'yinlari o'z tarixidagi eng katta delegatsiya bilan yo'l olmoqda.

Davlat madhiyasi sadolari ostida tantanali ravishda boshlangan tadbirda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov, Ijtimoim himoja milliy agentligi raisining birinchi orinbosari Shahoza Mirziyoyeva va boshqa rasmiyalar qatnashdi.

So'z olganlar yaqinda Parij bo'lib o'tgan yozgi Olimpiya o'yinlari sportchilarimiz qo'shingan g'amxo'nlik va ularga o'z iqtidorlari namoyon etishlari uchun yaratilayotgan shartsharoitlar mevasidir.

Yangilanayotgan O'zbekistonda imkoniyati cheklangan insonlarning huquq va manfaatlarini nomidan O'zbekiston paralimpiya sport delegatsiyasiga omad tiladi.

►4

GIDROENERGETIKA SOHASINI TARAQQIY ETTIRISHNING 5 YILLIK STRATEGIYASI

Davlatimiz rahbarining "Gidroenergetika sohasini isloh qilish chora-tadbirlarini jadallashtirish to'g'risida"gi qarori bilan gidroenergetika tarmog'ini 2028-yilgacha rivojlanish chora-tadbirlarini 5 yillik dastur tasdiqlandi.


Unga ko'ra:

- 2028-yilga borib bugungi kundagi mavjud 2228 MVt quvvatlarini qariyb 2,5 baravarga oshirish, ya'ni 5508 MVtga;
- yillik ekologik toza elektr energiya ishlab chiqarish hajmini 15,7 mld. kVt/soatga yetkazish rejalashtirilgan.

Mazkur loyihalarni qurishga 6,5 mlrd. AQSH dollarini miqdorida investitsiya mablag'lari jaib qilinadi.

Dasturni amalga oshirish natijasida "O'zbekgidroenergo" AJ tarkibidagi GEStlar soni 2 barobarga oshib, 120 taga yetkaziladi. 3 000 ta yangi ish o'rni yaratiladi, 4,2 mlrd. kub metr tabiiy gaz iqtisod qilinishiga erishiladi.

Manba: "O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyatasi.



"INSON QADRI UCHUN" TAMOYILINING YANA BIR AMALIY IFODASI

Bugungi kunda mamlakatimizda aholi turmush tarzini yaxshilash, ularga qulay sharoit yaratish, qisqacha aytganda, xalqni rozi qilishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoxda.

Yaqinda qabul qilingan "O'zboshimchilik bilan egallab olingen yer uchastkalariiga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni ana shunday muhim islohotlardan biri bo'ldi.

Ma'lumki, o'zboshimchilik bilan egallab olingen yer uchastkalari va u yerda qurilgan bino va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish bo'yicha huquqiy asosning mavjud emasligi uzoq yillardan buyon aholini qynab kelayotgan muammolardan biri edi. Ushbu qonunning qabul qilinishi esa yuqorida muammolarni hal etishning huquqiy asosini yaratdi.

Mazkur qonun:

— fuqarolar tomonidan 2018-yil 1-mayga qadar yakka tartibda uy-joy qurish orqali o'zboshimchilik bilan egallab olingen yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga;

— 2018-yil 1-mayga qadar fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari tomonidan hujatlarda ko'rsatilgan yer uchastkasiga maydonidan ortiqcha egallagan yer uchastkasiga hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga;

— "bir martalik aksiya" doirasida huquqlarni e'tirof etish oxiriga yetmagan yer uchastkasiga hamda unda qurilgan bino va inshootlarga;

— 2021-yil 8-iyunga qadar tuman (shahar) hokimining qarori bilan ajratilgan, lekin tasdiqlash masalasi viloyat hokimi yoki xalq deputatlari Kengashi tomonidan o'z vaqtida ko'rib chiqilmagan yer uchastkalariga;

— fuqarolarning bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari hududidagi turarjolayilariga hamda ular egallagan yer uchastkasiga;

— 2020-yil 9-martga qadar kichik

MUSHOHADA



sanoat zonalari hududiga joylashtirilgan tadbirkorlik subyektlarining yashash uchun mo'ljallanmagan binolari va inshootlari yoki ularning qismilari joylashgan yer uchastkasiga;

— xususiyashtirilgan binolar va inshootlar egallagan yer uchastkasiga;

— fuqarolarning, tadbirkorlik subyektlarining va rezident bo'lgan yuridik shaxslarning qonunchilikka muvofig mulk (egaliq qilish) huquqi e'tirof etilgan binolari va inshootlari egallagan yer uchastkasiga nisbatan huquqlarni e'tirof etish asoslar va rasmilashtirib berilishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, sonunda o'zboshimchilik bilan egallab olingen yer uchastkalari hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etishning shartlari ko'rsatib o'tilgan. Xususan, o'zboshimchilik bilan egallab olingen yer uchastkasiga boshqa shaxslarga ajratilmagan yoki elektron onlayn-auksionga qo'yilmaganligi,

muhofaza zonasida, sug'oriladigan yerdagi joylashmagani, yer uchastkasidan foydalanshda nido yo'qligi, yet va mol-mulk soliq bo'yicha qarzorlik mavjud emasligi, shirkat a'zosi bo'lganligi, investitsiya va boshqa majburiyatlar to'liq bajarilganligi kabi bir qator shartlar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, qonun bilan yakka tartibdagagi uy-joy qurilgan yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqining o'chamlari aniq qilib belgilangan.

Ya'ni:

— agar yer uchastkasi 1998-yil 1-iyulga qadar egallangan bo'sa, barcha hududlarda 0,24 hektardan ko'p bo'lмаган o'chamda;

— agar yer uchastkasi 1998-yil 1-iyuldan 2018-yil 1-mayga qadar egallangan bo'sa, Toshkent, Nukus shaharlari va viloyat markazlarida 0,06 hektardan, qolgan hududlarda 0,12 hektardan ko'p bo'lмаган o'chamda belgilanadi.

O'zboshimchilik bilan egallab olingen yer uchastkasi yuqorida qayd etilgan hajmlardan ortiqcha bo'lgan taqdirda belgilangan hajmdagi yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqi e'tirof etilgan holda qolgan ortiqcha yer uchastkasi mazkur shaxsga dehgon xo'jaligi yoki tomorqa xo'jaligi yuritish uchun rasmilashtirib berilishi nazarda tutilgan.

Qonun bilan huquqlarni e'tirof etish bosqichlari, ya'ni jarayonning ketma-ketligi quyidagicha:

— dastlab Kadastr agentligi avtomatashtirilgan axborot tizimiga barcha yerlar bo'yicha 6 xil turdag'i birlamchi ma'lumotlarni kiridi;

— vakolati tashkilotlar ikki oy muddatda har bir yer uchastkasi bo'yicha o'z vakolatidagi

ma'lumotlarni tizimga biriktiradi;

— avtomatashtirilgan axborot tizimida to'liq shakllantirilgan elektron yig'ma jild ma'lumotlari jamoatchilikka e'lon qilinadi;

— to'plangan barcha hujjalarning to'ligligi va qonuniyligi tizim orqali Adliya vazirligining tegishli hududiy bo'l'malari tomonidan ikki oy ichida o'rganib chiqiladi;

— adliya organlari tomonidan ijobja xulosaga kelgina taqdirda fuqarolarga Kadastr agentligi tomonidan bir martalik to'lovni yigirma ish kuni ichida to'lash to'g'risida SMS-xabarnoma yuboriladi, to'lov o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda ish to'xtatib turiladi;

— to'lov to'langan taqdirda elektron yig'majildi, ma'lumotlar va hujjalarning ijobji xulosalar bilan birga QoraqalpoQiston Respublikasi Jo'qorQi Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga navbatdagi sessiyada (majlisda) ko'rib chiqish uchun axborot tizimi orqali yuboriladi, hujjalarning sessiyalarda (majlislarda) muhokama qilinadi. Shundan so'ng yer uchastkasi bo'lgan ijara huquqi hamda unda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan mulk huquqi Kengash qarori bilan e'tirof etiladi.

Bunda ijara muddati yer qonunchiligiga muvofig yakka tartibdagagi uy-joylar egallagan yer uchastkalari uchun 99 yil, boshqa yer uchastkalari uchun 49 yil etib belgilanadi.

Huquqlarni e'tirof etganligi uchun Toshkent shahrida bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari, Nukus shahri va viloyat markazlarida bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari, viloyatlar bo'yusunuvidagi boshqa shaharlarda



bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari, boshqa aholi punktlarida bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari darajasida bir martalik to'lov undiriladi. Ushbu to'lovlardan I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar, ilgarigi aksiya doirasida bir martalik yig'imni to'lagan shaxslar ozod qilinadi.

"Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimiga kiritilgan shaxslarga 50 foiz chegirma beriladi.

Conun xalqimiz uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u davlat royxatidan o'tkazilмаган yer uchastkalari va noqonuniy qurilgan bino va inshootlar bilan bog'liq aholini uzoq yillardan beri qynab kelayotgan muammolarni hal etish imkonini beradi. Mazkur qonunning qabul qilinishi xalqimiz uchun chinakam quvonarli xabar bo'ldi. Eng asosiyi, qonun har bir fuqaroning huquq va manfaatini yanada to'liq ta'minlashga xizmat qiladi. Zero, yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar negizida "inson qadri uchun" tamoyili yotadi.

**Shuhrat CHO'LILIYEV,
Oliy Majlis Senatining Sud-huquq
masalalari va korrupsiyaga qarshi
karakish
qo'mitasi raisi o'rinosari.**

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

DAVLAT DASTURINING OLTI OYLIK IJROSI MUHOKAMASI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 2024-yil birinchi yarim yildagi ijrosi yuzasidan hisoboti muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, hisobot davrida aholining hayot darajasini yanada oshirish, makroitqisodiy barqarorlik, investitsiya, eksport, import ko'satikchilari hamda iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning izchil taraqqiyotini ta'minlash, respublika hudozlarning kompleks rivojlanish darajasini oshirish, xalqimizga munosib turmush sharoitini yaratish, ekologik barqarorlikka erishish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan.

Davlat dasturida belgilangan bir qator normativ-huquqiy hujjalarning loyihibarining ishlab chiqilishida hukumat va parlament o'rtaida yaqin hamkorlikda faoliyat olib borilgan. Qonunchilik palatasining qo'mitalari va hukumat tomonidan nazorat-tahlil tadbirlari doirasida ko'tarilgan masalalarni birligida hal etish amaliyotidan unumli foydalanilgan.

Hisobot davrida belgilangan bir qator

normativ-huquqiy hujjalarning ishlab chiqilishida hukumat va parlament o'rtaida yaqin hamkorlikda faoliyat olib borilgan. Qonunchilik palatasining qo'mitalari va hukumat tomonidan nazorat-tahlil tadbirlari doirasida ko'tarilgan masalalarni birligida hal etish amaliyotidan unumli foydalanilgan.

Kamg'allik darajasini qisqartirish yo'naliшida "Online-mahalla" platformasida hokim yordamchilar tomonidan kam ta'minlangan 873,4 ming oilani kamg'allikkadan chiqarish bo'yicha individual dastur ishlab chiqilgan. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlanish dasturlari doirasida 48 ming yoshga 856,5 mld. so'qlik kredit ajratilgan, 32 ming yosh kasb-hunarga o'qitilib, bandligi ko'tarilgan masalalarni birligida hal etish amaliyotidan unumli foydalanilgan.

Barqarol iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'naliшida ham zarur chor-aqdarlar amalga oshirilgan.

Xususan, joriy yilning olti oyida yalpi ichki mahsulot 6,4 foiziga, sanoat — 7,8, qurilish — 10,1, xizmatlar — 12,9, qishlog xo'jaligi 3,8 foizga o'sgan. Jami qiyomat 15,5 mld. AQSH dollarri bolgan xonijiy investitsiyalar o'zlashtirilgan, o'tgan yildagi nisbatan 2,1 barobarga o'sish qayd etilgan.

O'tgan davr mobaynida suv resurslarini tejasj va atrof-muhitni muhofaza qilishning ustuvor yo'naliшlari doirasida "yashil" energiya texnologiyalarini joriy etish orqali sug'orish tarmoqlardan suv yetkazib berishda elektr energiyasi iste'molini kamaytirish bo'yicha zarur chor-aqdarlar ko'rigan.

"Yashil" energetika yo'naliшida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar natijasida ishga tushgan 2,4 gigavattli 10 ta quyosh va shamol elektr stansiyasi hisobiga yarim yillarda 1,6 mld. kilovatt "yashil" energiya olinagan. Bu esa yarim milliard kub metr gazni tejasj imkonini bergan.

Majlisda deputatlar tomonidan

davlat dasturida belgilangan vazifalar va tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naliшlari ko'zdautilgan Davlat byudjeti mablag'larining o'zlashtirilishi hamda maqsadli sarflanishi ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratish lozimligi qayd etildi. Shuningdek, davlat dasturida belgilangan chor-aqdarlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash yuzasidan mutasaddi vazirlik va idoralarning mas'uliyatini yanada oshirish, dasturda ikkinchi yarim yillarda ijo etilishi belgilangan tadbirlarning tadbirlarning oqituvchi bugun aynan shohda bo'yicha yetarli darajada kompetensiyalarga ega bo'yicha muhim ahamiyatga ega ekanligini bildirdi.

Shuningdek, maktablardagi talim sifatini o'zgartirish, pedagoglar bugungi zamonaqaviy ta'lim-tarbiya tendensiylarini bolalarimizda ro'yobga chiqara olishi uchun yetarli salohiyatga ega bo'lishi, tezlashgan axborot maydonida oqituvchi bugun aynan shohda bo'yicha yetarli darajada kompetensiyalarga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega ekanligini bildirdi.

Shuningdek, maktablardagi ta'lim sifatini o'zgartirish, pedagoglar bugungi zamonaqaviy ta'lim-tarbiya tendensiylarini bolalarimizda ro'yobga chiqara olishi uchun yetarli salohiyatga ega bo'lishi, tezlashgan axborot maydonida oqituvchi bugun aynan shohda bo'yicha yetarli darajada kompetensiyalarga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega ekanligini bildirdi.

O'zMTDP fraksiyasini a'zolari davlat dasturining olti oylik ijrosi yuzasidan Maktabgacha va maktab talimi vazirining birinchi o'rinosari Tohir Haydarov javob berar ekan, ayni vaqtida umumita'm maktablar to'liq xatolovdan o'tkazilgan, maxsus dasturga muvofig 917 ta maktab va maktabgacha ta'lim muassasasini ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida 101 mld. so'm mablag' ajratilganligini ma'lum qildi. Uning qarshisi, hozirda ayrim viloyatlardagi maktablarda suv ta'minoti va sanitariya-gigiyena holatini yaxshilash bo'yicha ishlar yakuniga yetib, topshirish ishlari ketmoqda.

"Milliy tiklanish" DP fraksiyasini a'zosi

Umida Rahmonova esa dasturda belgilangan maktabgacha ta'lim mafkulari to'zlashtirilganligini va bu boroda aniq mehanizmlar ishlab chiqilib, tasdiqlanish jarayonida ekanligini bildirdi.

XDPO fraksiyasini vakili Zulayho Akramovaning hisobotda keltirilgan investitsiya loyihalarni amalga oshirishda hal etilgan va muammoli k o'sratikchilar orasidagi farqning sababi yuzasidan bergen savoliga ma'ruzachi Bosh vazir o'rinosari.

Xo'jayev respublika investitsiya shtabi faoliyati haqidagi batafsil ma'lumot berib, Investitsiya dasturiga 1260 dan ortiq

loyihalar kirtilgani, har bitta loyihaming o'z muddati bor ekanligi, yil oxiriga qadar barcha belgilangan loyihalarning ishlash tushishini ta'kidladi.

"Adolat" SDP fraksiyasini a'zosi Mavluada Adhamjonova esa dasturda birlashtirilgan tibbiyot tarmog'ini shakllantirishni davom ettirish, ra q a m l i texnologiyalar joriy etilgan tibbiyot mu a s s a s a r i ulusluni 70 foizga yetkazib belgilanganligini ta'kidlab, hisobotda berilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, bugungi kunda tibbiyot axborot tizimidan foydalananayotgan davlat tibbiyot muassasalarini necha foizni tashkil etmoqda, olti oyda davlat dasturida belgilangan 70 foizga yetkazib bo'yicha maqsadga erishildi, — degan savol bilan mutasaddilarga yuzlandi.

Sog'liqni saqlash vaziri v. b. A. Xudoyorov ushbu masala yuzasidan batafsil tushuntirish berib, vazirlik tomonidan mazkur vazifa ijrosi yuzasidan ta'minlash borasida maxsus strategiya ishlab chiqilgani, ya'ni o'tgan yillar davomida foydalilanilgan tizimidan

real bozor narxidan kelib chiqib belgilash va hukumat

darajasida qayta ko'rib chiqish lozim, deb hisoblaydi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiya a'zolari esa hisobotda barcha soha qatori atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanan yuzasidan amalga oshirilgan ishlarga to'xalib, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida

2024-yil bahorgi ko'chat ekish mavsumida



E'TIBOR, E'TIROF, HAYRAT

"FINALDA BESH BOKSCHI... O'ZBEKISTONNING SIRI NIMADA?"

◀1

"Rio — 2016" va "Tokio — 2020" yozgi Olimpiya o'yinlarining tantanali ochilish masoimlarida o'z davlati bayrogini Bahodir Jalolov ko'targan bo'sa, "Parij — 2024"da bunday sharafligi vazifa Abdumalik Xalakov chekiga tushdi".

"20minutes.fr" nashrida e'lom qilingan "Finalda besh bokschi... O'zbekistonning siri nimada?" maqolasida jurnalnistlar boks O'zbekistonda eng ommabop sport turlaridan biri ekanini va ko'plab o'zbek bolalari yoshligidagi ushbu sport turi bilan shug'ullanishini qayd etgan.

Nashrda so'nggi yillarda O'zbekistonga professor Karlos Vilyanuyeva

rahbarligidagi Kuba boks maktabidan mutaxassislari taklif etilgani, butun mamlakat bo'ylab boks to'garaklari ishi tahsil qilingani, mashq'ulotlar jarayonini individuallashtirish, samarali rejalashtirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilgani va tajribal bokschilarining mashq'ulot jarayoni hamda faoliyati puxta o'rganilani ma'lum qilingan. Har bir sportchi o'z salohiyatini maksimal darajada oshirishi uchun barcha zarur sharoit yaratilgan, deb qayd etilgan materialda.

"O'zbekiston terma jamoasingning barcha yosh toifalaridagi bokschilar katta salohiyatga ega. Shubhasiz, o'zbek bokschilar juda

kuchli, katta iqtidor va yuqori texnikaga ega. O'zbekistonning iqlimi, mevalari, vitaminlarga boy oziq-ovqatlari sportchilar uchun juda muhim, ular kuch-quvvat bag'ishladi", deya Kuba terma jamoasi bosh murabbiyi Rolando Montesning so'zlaridan iqtibos keltiriladi maqolada.

Shu o'rsha ta'kidlash kerakki, aksariyat fransuz omraviy axborot vositalari O'zbekiston bokschilari — Hasanboy Do'smatov, Asadxoja Mo'ydinxo'jayev, Lazizbek Mullojonov, Abdumalik Xalakov va Bahodir Jalolov o'zlarining final janglarini ishchon bilan o'tkazib, "Parij — 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarida yangi tarix yaratganini alohida urg'ulagan.



YURTIMIZ YOSHLARINING YUTUG'I BARCHAMIZGA KUCH BAG'ISHLAYDI

Mamlakatimizda sportni rivojlantirish va ommalashtirish ijtimoiy siyosatining muhim yo'naliishlaridan biri etib belgilangan. Xalqimizning sportiga ommaviy tarzda keng jalb qilish, ayniqsa, kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodni har jihatdan yetuk va komil inson etib tarbiyalashga yuksak darajada e'tibor qaratilmoqda.



Davlatimiz rahbarining tashhabusi bilan sport sohasida ulkan ishlotlar amalga oshirilib, samarali ishlaydigan tizim yaratildi, markazi va chekka hududlarda zamonalardan sport inshootlari qad rostladи.

Quvonarlisi, uzoqni ko'zlab, churug tahlil va aniq maqsadlar asosida amalga oshirilgan tizim ishlar o'z natijasini bermoqda. O'sh avlod yaratilgan sharoitga yarasha o'z iste'dodini nafaqat yurtimizda, balki jahon arenalarida ham namoyon etmoqda.

Xabarizing bor, joriy yilning 26-iyulidan 11-avgustiga qadar Fransiyaning Parij shahrida eng nufuzli sport va do'stlik musobaqasi — XXXIX yozgi Olimpiya o'yinlari bo'lib o'tdi. Unda yurtimiz nomini 90 nafar sportchimiz himoya qildi. Yakunniy natijalarga ko'ra, O'zbekiston delegatsiyasi ushbu to'rt yillikning eng nufuzli sport anjumanini tarixiy natija bilan yakunlasi, 208 mamlakat orasida 13-o'rinni egalladi.

Ushbu natija bilan O'zbekiston Osiyo qit'asida to'rtinchik, turkiy, muslimon va MDH davlatlari orasida 1-o'rinda turibdi. Ayniqsa, biron'a 3 nafar sportchimiz ikki karra Olimpiya champion bo'lgani tashsinga sazovor. Sportchilarimiz 8 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza, umumiy hisobda 13 ta medalni qo'girildi.

E'tiborlisi, tarixda ilk bor

o'zbekistonlik ayol sportchi yozgi Olimpiadaning oltin medalliga sazovor bo'ldi. Erkaklar boksidagi 7 ta vazn toifasidan 5 tasida o'zbekistonliklar zafar quchdi. Bundan tashqari, o'zbek sporti "Parij — 2024"da futbol, suvg'a sakrash, kamondan otish va ayollar kurashi bo'yicha debut qildi.

Sezib turganingizdek, Olimpiadagini natija va rekordlarimiz yildan-yilga o'sib bormoqda. Buning ortida o'zining mashaqqatini mehnatini ayamagan sportchilarimizning ot-a-na murabbiylari turadi, albatta.

Kuni kecha Prezidentimiz Olimpiada natijalar haqidagi gapiralar ekan, ularni shunday e'tirof etdi: "Barcha sportchilarimiz, ularning otanalarini, ustoz va murabbiylari Yangi O'zbekistonning chinakam qahramonlaridir! Ular bilan har qancha faxrlansak arziydi, ular bizning qururimiz!"

Ishchimiz komil, hali bu natijalar bilan cheklanmaymiz, yutuqlarimiz davomli bo'ldi. Yangi O'zbekiston yoshlari bundan-da ulkan marmalarni zabt etishga qodir. Chunki ular To'marish, Manguberdi, temuriylar, boburiylar avlodni. Oldinda bizni yana bir katta musobaqa kutib turibdi. 28-avgust kuni XVII yozgi Paralimpiya o'yinlariga start beriladi. Ushbu musobaqadan ham O'zbekiston delegatsiyasi a'zolari ulkan muvaffaqiyatlar bilan qaytishiga aminmiz. Ularga zafer va omadlar yor bo'lsin!

Dilorom TOSHMUAMEDOVA,
Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi o'rinosbosari.

YANGI O'ZBEKISTONGA YANGI G'ALABALAR TAQDIM ETILMOQDA

Xitoyning yetakchi "Global Times" gazetasida O'zbekiston sportchilarining "Parij — 2024"dagi g'yalabalariga bag'ishlangan maqola bosildi.

"Parijda bo'lib o'tgan yozgi Olimpiya o'yinlari O'zbekiston uchun mamlakat mustaqillikka erishganidan keyingi eng muvaffaqiyati turnir bo'ldi. 200 dan ortiq davlatlarning sportchilar o'rtafigidagi umumiyl medallar hisobida o'zbekistonlik olimpiyachilar 13 ta, jumladan, sakkizta oltin medalni qo'liga kiritib, umumjamoa hisobida 13-o'rinni, Markaziy Osiyo va MDH davlatlari orasida birinchi o'rinni egalladi", deyiladi nashrda.

Boks bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi esa Parijda medallar jang'a rish bo'yicha birinchi o'rinni egallab, "jahoning eng kuchli jamaosi" degan sharafla nomga erishgani alohida ta'kidlanadi. Erkaklar terma jamoasidagi yetti nafrar bokschidan besh nafari oltin medalni qo'liga kiridi.

Qayd etilganidek, Parijda Hasanboy Do'smatov, Abdumalik Xalakov, Asadxoja Mo'ydinxo'jayev, Lazizbek Mullojonov va Bahodir Jalolov championlikni tantana qildi.

"O'zbekistonlik dzyudochi" Diyora Keldiyorovaning "Parij — 2024" Olimpiya o'yinlaridagi ishtiroti haqiqiyoq sensatsiya bo'ldi. U musobaqaning 1/8 finalida mashhur Uta Abeni, hal qiluvchi bahsda esa kosovolik taniqli dzyudochi Distriya

Krasnichini mag'lub etib, O'zbekiston tarixida Olimpiya o'yinlarda oltin medal qo'liga kiritigan birinchi ayol sportchi bo'ldi", deyiladi maqolada.

Yiridi xalqaro musobaqalar, jumladan, boks, taekvondo, erkin kurash, qilichbozlik va boshqa sport turlari bo'yicha jahon va Osiyo championatlarini muntazam o'tkazilayotgan O'zbekistonda sport infraz u'ilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, mamlakatda 200 dan ortiq yirik sport inshootlari foydalanishga topshirildi, yana 150 inshoot rekonstruksiya qilindi. Bundan tashqari, O'zbekiston 2025-yilda o'tkaziladigan yoshlar o'rtafigidagi Osiyo o'yinlariga mezonlik qilishga hozirlik ko'rimoqda.

Aytishicha, ayni choQda, O'zbekistonda maktab, kollej o'quvchilarini va talabalar o'tasida sport musobaqalarini o'tkazishning uch bosqichli noyob tizimi yaratilgani iqtidorli sportchilarni tayyorlashga beqiyos hissa qo'shamoqda.

"Yuqoridagilarning barchasi va mamlakatdagi boshqa o'zgarishlar tufayli sport, ayniqsa, yoshlar o'rtafigida nufuzli faoliyat yo'naliishlaridan biriga aylandi. Ozbek sportchilar Yangi O'zbekistonga yangi g'yalabalarini taqdim etishda davom etmoqda va ularning nomlari jahon sporti solhomalaridan mustahkam o'rinni oshmoqda", deb yozgan nufuzli "Global Times" gazetasi muxbir.

"Dunyo" AA.

sportchilarni tayyorlashga beqiyos hissa qo'shamoqda.

"Yuqoridagilarning barchasi va mamlakatdagi boshqa o'zgarishlar tufayli sport, ayniqsa, yoshlar o'rtafigida nufuzli faoliyat yo'naliishlaridan biriga aylandi. Ozbek sportchilar Yangi O'zbekistonga yangi g'yalabalarini taqdim etishda davom etmoqda va ularning nomlari jahon sporti solhomalaridan mustahkam o'rinni oshmoqda", deb yozgan nufuzli "Global Times" gazetasi muxbir.

Yolning qurashiga, ayni choQda, O'zbekistonda maktab, kollej o'quvchilarini va talabalar o'tasida sport musobaqalarini o'tkazishning uch bosqichli noyob tizimi yaratilgani iqtidorli sportchilarni tayyorlashga beqiyos hissa qo'shamoqda.

"Yuqoridagilarning barchasi va mamlakatdagi boshqa o'zgarishlar tufayli sport, ayniqsa, yoshlar o'rtafigida nufuzli faoliyat yo'naliishlaridan biriga aylandi. Ozbek sportchilar Yangi O'zbekistonga yangi g'yalabalarini taqdim etishda davom etmoqda va ularning nomlari jahon sporti solhomalaridan mustahkam o'rinni oshmoqda", deb yozgan nufuzli "Global Times" gazetasi muxbir.

"Dunyo" AA.

"Parij — 2024":

XALQLARIMIZ QALBINI YANADA YAQINLASHTIRCAN ANJUMAN

Jahon ahli diqqat-e'tiborini Fransiyaning Parij shahriga qaratgan nufuzli sport bayrami — XXXIX yozgi Olimpiya o'yinlari yakuniga yetdi. Turli arenalarda kechgan o'yinlar o'zining unutilmas va hayajonga boy lahzalari,

ayniqsa, yurtimiz sharafini himoya qilgan sportchilarining tarixiy g'yalabalar bilan qalbimizga muhrlandi, desak, yangilishmaymiz. O'zbekiston delegatsiyasi a'zolarining tarixiy zafarlarini,

yurtimiz bayrog'ining yuksakka ko'tarilishi, davlatimiz madhiyasi yangrashi jahon hamjamati va qardosh xalqlar tomonidan ham e'tirof etilgani quvonchimizga quvonch qo'shidi.



**Abdulkabir JUMASHEV,
temir yo'l sohasi valkili (QirQiziston):**

— Parida murosasiz bellashuv va bahslarga boy o'tgan bu safariga Olimpiada bigza ko'plab hayajonli damlarni tuhfa etgani bilan esda qoldi. Bi musobaqa, ayniqsa, bir-biriga yaxshilik sog'indigan, yelka tutadigan, jondosh bo'lib yashayotgan mamlakatlar uchun o'zgacha hayrat va quvonch baxsh etdi.

O'zbek qardoshlarimiz qatnashgan bellashuvlari, xususan, boksnii zo'r maroq bilan tomosha qildi. Aytish jo'z, ular mazkur sport turida ancha ilgarilab ketishgan. Bu, o'z navbatida, soha ekspert va mutaxassislar tomonidan ham alohida e'tirof etilmoqda.

O'zbek o'Qa-inilarimiz binning chin ma'nodagi suyansa bo'ldigan do'stimiz ekani yani shu Olimpiadada ham namoyon bo'ldi. Chunki bokschimiz Munarbek Seyitbek o'g'lining murabbiysi ma'lum sabablarga ko'ra musobaqaga yetib borolmadni va unga o'zbekistonlik Akmal Hasanov sekundintik qildi. Hayajonli jihat shuki, sportchimiz bu vaqtida yurtimiz tarixida illi bor final bosqichiga yollanma oldi. Buni qarangani, finalda o'zbekistonlik bokschi bilan ro'paka keldi. OchiQi, oxirgi natija muhim emas, asosiy, bu o'yinlarda do'stlik g'alaba qozondi, qardoshlik zafar quchdi. O'zbek qardoshlarimizning bu xayriy ishlisi, do'stlik qo'lini cho'zganini hech qachon unutmaymiz.

Raxat JAQSIBAY, journalist (Qozog'iston):

— Tan olish kerak, bu Olimpiada avvalgilaridan boshqa ruhda o'tdi, ildizi bir, orzu-maqsaqlari mushtarak qardosh mamlakatlarini yanada birlashtirdi, yakdil ovozga aylantirdi. Musobaqalarda o'zbek yutsa — biz, biz yutsak, o'zbeklar biday quvondi.



**Olmos ULVIY,
Ozarkonj Milliy ilmlar akademiyasi xodimi
(Ozarkonj):**

— O'zbek sportchilar qatnashgan bahslarni, ularning g'yalabalarini xuddi o'zimiznikidek kuzatib bordik. Ta'kidlash jo'z, ularning barchasi turkiy xalqlarning yoshlarini naqadar katta salohiyat va kuchga ega ekanini ko'satib bera oldi.

Nafqat o'zbek xalqi, balki turkiy xalqlarning arsloni, shijoat, sheryarak qizi Diyora Keldiyorovaning Tokio Olimpiyadasi championi, besh yildan beri mag'lub neligini bilmay kelayotgan yaponiyalik

dzyudochi Uta Abe ustidan q u c h g a n g ' a l a b a s i , r a q i b i n g ' o ' y i n d a n s o ' n g b u mag'lubiyatdan o'z i g a kelolmaganini ko'rib, yuraklarimiz titrab ketdi. Chindan-da, o'zbek qizining

hayajonga, g'urur-iftixorga to'ldi. To'g'ri, bellashuvda alamlı holatlar ham bo'ldi, amma muzaffarlik, sportchilarimiz shohsupaga ko'tarilishi, davlatlarimiz madhiyasi yangrashi barini yuvub ketdi. O'zbekiston madhiyasi Olimpiada davomida 8-marta yangradi, buni oilamiz, yaqinlarimiz bilan biday quvonib kuzatdik.

Ayniqsa, taekvondo bo'yicha mardonov shijoatiga butun dunyo qoyil qoldi, desak, ayni haqiqat.

O'chiqi, xalqlarimiz bir-birini qanchalik hurmat qilishi, sog'ingani, qo'llab-quvvatlay olishi bi bellashuvlarda yana bir bor namoyon bo'ldi. Ijtimoj tarmoqlarda bir-birimizga omad tilab "postlar" ulashidik, egzu niyatlarimizni bayon etdik, g'ala nashidasini birkalikda baham ko'dirdik. Xillas, bu o'ynlar bizga yana bir marta birlashish, bir mush, bir yurakka aylanishimiz kerakligini eslatgani bilan ham qadri bo'ldi.

Rahmatjon BOBOJONOV ("Xalq so'zi") yozib oldi.

PEKLAMA

ISHGA TAKLIF

2024/2025-o'quv yili uchun yuqori malakali pedagog xodimlarni quyidagi bo'sh (vakant) lavozimlarga ishgataklif etadi:

No	Kafedralar	Kafedra mudiri	Professor	Dotsent	Katta o'qituvchi	Assistant
1	Aniq, ta'biy fanlar vajismoniy tarbiya	1	3	3	3	
2						

KO'P ASRLIK DO'STLIK VA YAXSHI QO'SHNICHILIK SOLNOMASIDA YORQIN SAHIFA



1 Bugungi kunda xalqaro munosabatlarning globallashuvni, bir tomonidan, yangi mustaqil davlatlarga jahon maydoniga erkin chiqish va turli davlatlar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lgan qo'shish, o'z milliy manfaatlarni himoya qilishda keng imkoniyatlar yaratayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, umumiy yashash hududi, ya'nini muayyan mintaqada joylashgan davlatlarning bir-biriga yaqinlashuvni hamda ular o'rtafiga aloqalarning kuchayishi bilan bog'liq tendensiyalarga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Shu munosabat bilan, bu boroda o'tkaziladigan tadbirlar, targ'ibot va tashviqot ishlari, avvalo, O'zbekistonning jahondagi o'ni va nufuzini yaqqlab tasavvur qilish, bugungi dorilamon kunlarning shukronasi va uning qadriga yetish, ikkinchidan, Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan tub islohotlar va o'zgarishlar jarayonining mazmun-mohiyati va ahamiyatini o'rganish, uchinchidan, bu boroda alohida ahamiyat berilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar va mas'uliyatlari vazifalarimizni yanada chuqurroq anglab olishga imkon beradi.

P re z i d e n t i m i z n i g Qozog'istonga tashrifi, Ostona shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining oltinchi Maslahat uchrashuvida ishtirok etishi va bu anjumandagi nutqi hamda tashrif doirasidagi ko'plab tadbirlar mintaqaga davlatlari o'rtafiga do'stlik, qo'shnichilikni va o'zaro anglashunvi rivojlanishiga borasida yangi bosqichni boshlab berdi, ushu sohadagi ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnichilik solnomasida yangi sahifa ochdi, desak, ayni haqiqat.

Butun dunyo va ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasi miqyosida mamlakatimizning mavqeい, davlatimiz rahbarining obro'-e'tibori tobora ortib borayotganining asosli sabablari bor, albatta.

Birinchedan, hozirgi davrga kelib tobora rivojanib va taraqqiy etib borayotgan yangi O'zbekiston jadallik bilan globallashayotgan

bugungi dunyodagi xalqaro munosabatlarning faol va ishonchli subyektiga aylandi. Bu jihatdan, mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvni va rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilish istiqbollari, xalqaro munosabatlar tizimida o'z o'rnini va nufuzini belgilash borasidagi faol tashqi siyosiyatni muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixitoslashtirilgan muassasalarini — YUNISEF, YUNESKO, Juhon sog'iqliqi saqlash tashkiloti, shuningdek, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Evropa Ittifoqi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shaxnay hamkorlik tashkiloti, Turli davlatlarning tashkiloti kabi ko'plab xalqaro, mintaqaviy hamda moliyaviy va iqtisodiy tuzilmalarini faol va tashabbuskor a'zolaridan biriga aylandi. Dunyoning 130 ga yaqin mamlakatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatilgani, O'zbekistonning duno miqyosidagi ko'plab forum va xalqaro tashkilotlarning tadbirlaridagi faol ishtiroki va natijador tashabbuslari buning yaqqlab daliqidir.

Ikkinchedan, bunday olamshumul yutuqlar va natijalar ortida chuqur o'ylangan, butun dunyo, mintaqaga va mamlakatimiz manfaatlariiga mos faol harakat, ulkan mehnat turgani, shubhasiz, albatta. Ayni paytda bu tasodif emas, balki jahon xalqlari bilan tinchlik, birodarlik, hamkorlik va yaxshi qo'shnichilikni yanada mustahkamlash yo'ldida keyingi yillarda amalga oshirilayotgan rejali faoliyatning natijasi hamdir.

Uchinchedan, yangi O'zbekiston tashqi siyosatining Prezidentimiz tomonidan asoslab berilgan hamda ulkan yutuq va natijalarga, pirovardida esa bugungi kunda yuksak e'tirofga sabab bolayotgan umuminsoniy tamoyillari davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlasmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, hududlar va chegaralarning daixsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlari aralashmaslik kabi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalariga tayanishi bilan uzyv bog'liqdirdi. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 19-sentyabrdagi BMT Bosh Assambleysi minbaridagi nutqida mamlakatimizning bu boradagi siyosatining ustuvor tamoyili quydagicha ifodalab berilgan:

"O'zbekiston hech qanday blokka qo'shilmaslik maqomini saglab

golgan holda, ochiq mulqotga tayyordir. Biz barcha sherklarimiz bilan tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lda hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdormiz."

Ushbu tayanch fikrga asoslanadigan bo'lsak, bugungi O'zbekistonning tashqi siyosatida biror-bir mamlakat, jumladan, yaqin qo'shnichilikning milliy manfaatlari va suverenitetiga aslo zid kelmaydigan va shu bois ham keng miqyosda e'tirofga sazovor bo'layotgan quyidagi muhim tamoyillar asos qilib olingenanini alohida ta'kidlash lozim:

- milliy manfaatlari ustuvorligini saqlagan holda, boshqa davlatlar bilan o'zaro tenglik asosida manfaatlari hamkorlik qilish;
- xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlik, turli mamlakatlardagi ziddiyatlarni tinch yo'l bilan hal qilish tarafdoi bo'lish;
- hech qanday harbiy bloklarga kirmslik, shuningdek, munozarali muammolarni kuch yoki kuch orqali tahdid yo'li bilan hal qilishdan tuyilish;
- tashqi siyosat boshqa davlatlarning ichki ishiga aralashmaslik, teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirilishi;
- davlatning ichki me'yorlariga nisbatan xalqaro huquq me'yorlarining ustuvorligini tanolish va barcha xalqaro huquq normalari va umuminsoniy andozalarga roya qilish;
- uzoq va yaqin mamlakatlari bilan o'zaro ishonch asosida, ikki va ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish hamda xalqaro tashkilotlarni doirasida hamkorlik qilish.

Mustahkam xavfsizlik, barqaror iqtisodiy taraqqiyot uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, aholi turmush darajasini ko'tarish, konstitutsiyaviy tuzum asoslarini mustahkamlash, millatlar ahilligini, xalqlar do'stligini ta'minlash, fuqarolar erkinliklari va haq-huquqlarini muhofaza qilish respublikamiz tashqi siyosatining asosini maqsadlari hisoblanadi.

Bu esa, o'z navbatida, dunyo va mintaqaga mamlakatlari orasidagi mustahkam do'stlik, tinchlik va barqarorlik makonini yaratishdagi o'zaro hamkorlikka keng imkoniyatlar yaratadi va milliy manfaatlarga mos keladi.

To'rtinchidan, aynan ana shu jihatlarning mintaqada ko'proq e'tirof etilayotganining sabablariga tayanishi bilan uzyv bog'liqdirdi. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 19-sentyabrdagi BMT Bosh Assambleysi minbaridagi nutqida mamlakatimizning bu boradagi siyosatining ustuvor tamoyili quydagicha ifodalab berilgan:

"O'zbekiston hech qanday blokka qo'shilmaslik maqomini saglab

chora-tadbirlar ko'rish borasidagi sa'y-harakati va tashabbuslari bilan bog'liqdir.

Mazkr yo'nalishdagi faoliyatning mazmun-mohiyati va maqsad-muddaoisi Prezidentimiz tomonidan ta'kidlangan quyidagi fikrda o'zining yaqqlab ifodasini topgan: "O'zbekiston bugungi kunda o'zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu — har tomonlama chuqur o'ylab tanlangan yo'ldir. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O'zbekiston ushu mintaqaga barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordi. Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo — biz intilgandeng eng muhim maqсад va asosiy vazifadir".

B u j i h a t d a n , Prezidentimizning Ostona shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining oltinchi Maslahat uchrashuvidagi nutqi hamda mazkur tashrif doirasidagi ko'plab tadbirlaridagi fikrmulohazalar va ayniqsa, Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash konsepsiyanisini ishlab chiqish, Markaziy Osiyo investitsiya kengashi va Innovatsion rivojilish bankini ta'sis etish, qo'shma investitsiya forumlarini mintazam o'tkazib borish to'g'risidagi takliflari tarixi va taqdirida umumiylilik ko'p bo'lgan qardosh xalqlar uchun muhim ahamiyatga molik tashabbuslari. Davlatimiz rahbarining bu sohadagi masalalarining barchasini ko'rib chiqish uchun iqtisodiy kengash — Bosh vazir o'rinosarlari darajasida mintazam uchrashuvlarni yo'lgan qo'shish, Hududlar forumi va tarmoq konferensiyalari, sanoat

rivojilish bankini ta'sis etish, qo'shma investitsiya forumlarini mintazam o'tkazib, "Markaziy Osiyo yoshlari kun taribi — 2030"ni ilgari surish va yosh avlodni hamkorlik dasturlariga qurib etish, Markaziy Osiyo ta'lrim va akademik almashuv dasturini qabul qilish hamda yetakchi oliy o'quv yurtlarining diplomlarini o'zaro tanolish to'g'risidagi bitimni ishlab chiqish, iqtidorli talabalar uchun o'zaro kelishuvular asosida stipendiyalar ajratishga doir taklif va tashabbuslari ham o'zining amaliy ifodasini topayotganini alohida ta'kidlash zarur.

Bahodir MIRZAYEV,
«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» milliy tadqiqot universiteti rektori.

salohiyati ko'rgazma-yarmarkasi, eksport imkoniyatlari taqdimotlarini tashkil etgan holda Markaziy Osiyo biznes hamkorlik haftaligini o'tkazish, mintaqaviy transport-kommunikatsiya tarmog'ini yanada ravnaq toptirish, mintaqani barqaror rivojlanish bo'yicha kompleks dastur va Transchegaraviy daryolar suv resurslaridan oqilona foydalish bo'yicha mintaqaviy strategiyani ishlab chiqishga doir taklif va tashabbuslari ushu yo'nalishdagi faol hamkorlikning bardavom bo'lishini anglatadi.

Prezidentimiz tomonidan taklif qilingan Mintaqaviy hamkorlikni rivojlanishining 2040-yilgacha mo'ljalangan konsepsiyasini qabul qilish hamda Markaziy Osiyoda strategik sherkilik va hamkorlik to'g'risidagi ko'p tomonlama bitimni tayyorlash to'g'risidagi tashabbuslar ham mintaqalarning kelajagi uchun mustahkam asoslar yaratishga qaratilgan bilan e'tibora molikdir.

Ostonadagi uchrashuvlar va tashrif doirasidagi ko'plab tadbirlar, bir tomonidan, mintaqada birdamlik va hamkorlik tuyg'usi tobora mustahkamlanib borayotganidan, ikkinchi tomonidan esa, bu boroda Prezidentimizning barcha yakdillik bilan e'tirof etayotgan ulkan xizmatlari borligidan dalolat beradi. Masalan, birligina guumanitar soha, ma'naviyat-rififi yo'nalishdagi hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami, takliflar va tashabbuslarga qisqa nazar solishning o'ziyoq qamrovning naqadar kengligi va maqsadning ezzulikka yo'nalganini anglash uchun yetarli. Prezidentimiz aynan "madaniyatixiyi merosning umumiyligini hisobga olgan holda xalqlarimizning mintaqaga kelajagi uchun daxldorligi, birdamligi, umumiy mas'uliyatini anglishni kuchaytirishga katta e'tibor berish lozimligini alohida ta'kidlagani bejiz emas. "Markaziy Osiyo tarixi va madaniyat: yagona o'mish va umumiy kelajak" xalqaro mediaplatfomasining fursatida ishga tushirilishi, joriy yil oktyabr oyida Toshkent shahrida birinchi Markaziy Osiyo ta'lim forumining o'tkazilishi rejalashtirilgani bu boradagi muhim amaliy qadam bo'lishi, shubhasiz.

Bahodir MIRZAYEV,
«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» milliy tadqiqot universiteti rektori.

YANGILIKLAR xabarlar

TAFSIOTLAR

Fan olimpiadasi g'oliblari taqdirlandi



Saudiya Arabistonida bo'lib o'tgan 56-xalqaro kimyo olimpiadasida O'zbekiston vakillari 1 ta oltin, 2 ta kumush va 1 ta bronza medalni qo'ga kiritdi.

Farmatsevtika tarmog'ini rivojlanish agentligi hamda Farmatsevtika texnik universiteti rahbariyati tomonidan Xalqaro kimyo va biologiya fanlari olimpiadachilarini tantanali taqdirlash marosimi o'tkazildi.

Olimpiada g'olib va sovindorlariga Farmatsevtika texnik universitetida bakalavr bosqichida ta'lim olishi uchun qiymati 140 mln. so'mga teng bo'lgan sertifikatlar topshirildi.

Kompyuter jamlamalari — ta'lim muassasalariga

Navoiy viloyatidagi umumta'lim muassasalariga ularning moddiy-teknika bazasini mustahkamlash maqsadida kompyuter jamlamalari va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani jizozlari topshirildi.

Viloyat hokimligi tashabbusi bilan tashkil etilgan ushu tadbir doirasida 1-bosqichda 72 ta umumta'lim hamda 4 ta kasb-hunar maktabiga chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani jizozlari to'plamlari va 110 ta kompyuter jamlamasini yetkazib berildi.

Sanoat korxonalari bilan ishslashning monitoring tizimi

Toshkent viloyatida sanoat korxonalari bilan ishslashning monitoring tizimi joriy qilindi.

Bu haqda viloyat hokimining tegishli hujjati imzolandi.



Xususan, ishlab chiqarishi kamaygan, faoliyatini to'xtagan, past quvvatda ishlayotgan, kredit olib ishga tushgan, biroq bugungi kunda 50 foizdan past quvvatda ishlayotgan hamda "nol" qiyatidagi korxonalar nazoratiga olinadi.

Aniqlangan muammolar tahlil qilinib, tegishli tashkilotlar orqali yechimini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rildi. Bu tizim tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy ahvolini yaxshilashga ko'maklashadi.

"Yangi O'zbekiston — mening nigohimda"

Xorijda istiqomat qilayotgan iqtidorli vatandoshlarimiz o'rtafiga ana shu nomda maqolalar tanlovi o'tkazildi.

"El-yurt umidi" jamg'armasi, Yoshlar ishlari agentligi, "Vatandoshlar" jamaot fondi hamda O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi hamkorligida uyushtirilgan ushu tanlova yuzga yaxin vatandoshlar va jamg'arma stipendiatlari o'z maqolalari bilan qatnashdi.

Ushbu ijodiy ishlar tanlov nizomi asosida ko'rib chiqildi va 1, 2, 3-o'rnlar belgilandi. G'olib va sovindorlar munosib taqdirlandi.

"Xalq so'zi".

VATANNI SHARAFFLASH SAODATI

1 — Biz, sportchilar yangi bir dovon oldida turibmiz, — deydi para yengil atletika bo'yicha temra jamaa a'zosi, Paraosyo o'ynlari g'olib Shahina Yigitaliyeva. — Ishonchim komilki, bu dovonni biz bor salohiyatimizni, mahoratimizni ishga solib, yuksak ishonch bilan zabt etamiz. Axir yurtimizda paralimpiyachilariga barcha shart-sharoit yaratib berildi. Davlatimiz rahbari, butun xalqimiz har lazha qol'lab-qvvatlab, bizga ruhan tayanch bo'lib turibdi. Endigi navbat sportchilarga Yaqindagina niyosasiga yetgan yozgi Olimpiya o'ynlaridagi O'zbekiston delegatsiyasining muvaffaqiyatlari bizga qo'shimcha kuch, baland ruh baxsh etadi. Biz, paralimpiyachilar ham ishonchni oqlab, Vatanni sharafflash saodatiga musharrarf bo'lamic, deya va'da beramiz.

Tadbirda XVII yozgi Paralimpiya o'ynlarida O'zbekiston delegatsiyasi bayroqdarlari — para yengil atletikaning yadro otish

dasturida ikki karra Paralimpiya o'ynlari g'olib Husniddin Norbekov va disk uloqtiresh dasturida "Tokio — 2020" Paralimpiya o'ynlari oltin medali sohibi Mohigul Hamdamovaga tantanali ravishda davlat atletning 29 nafari, ya'nin 45 foizi ayol sportchilar hisoblanadi. Bundan tashqari, para o'q otish bo'yicha ilk bor o'zbekistonlari ayol sportchi — Shahnoza Mamajonova Paralimpiya o'ynlari litsenziyasini qo'lgan kiritid. Bu esa yurtimizda Paralimpiya harakatida ham gender tengligi ta'minlanib borayotganidan dalolat. Fransiya poytaxtidagi o'ynlarda O'zbekiston delegatsiyasi para velospot turidan debut qiladi. Ikki nafar para velosporthimiz vel